

MINTAQALARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA
JARAYONLARINI MAKROIQTISODIY TARTIBGA SOLISHNI
TAKOMILLASHTIRISH

Abdurakhimova Saida Ahmadjanovna

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
i.f.d. (DSc.), professor v.b.*

Adilova Guzal

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
i.f.n., dotsent*

Annotatsiya: ushbu maqolada investitsiya faoliyatini tartibga solishning xorij tajribasi tegishli modellar asosida o'rganilgan. Unda xususan, «Davlat – regulyator», «Davlat+transmilliy korporatsiyalar» hamda «Mikroiqtisodiyot+makroiqtisodiyot+davlat – koordinator» modellari Xitoy, Finlyandiya va Chexiya davlatlari misolida ko'rilgan. Shuningdek, maqolada mamlakatimizga rivojlangan investor davlatlar tomonidan kiritilgan investitsiyalar, ularning tahlili, sohadagi qonunchilik asoslari va shu kabi boshqa muhim masalalar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: investitsiya, investitsion muhit, xorijiy investor, iqtisodiyot, milliy iqtisodiyot, makroiqtisodiy siyosat, fiskal va monetar siyosat, raqobat muhiti, kapital qo'yilmalar, erkin iqtisodiy zona, valyuta siyosati, erkin bozor, qimmatli qog'ozlar bozori, inflyatsiya, tovar, import, eksport, to'lov balansi, model, Soliq kodeksi, innovatsiya, islohot, davlat-xususiy sheriklik mexanizmi, energetika, energiya tejamkorligi, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, transport, sog'liqni saqlash, ta'lim, yo'l qurilishi, loyiha, klaster.

KIRISH

Jahon mamlakatlarida investitsiya siyosati nafaqat davlat tomonidan tartibga solishning asosiy vositasi, balki amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning strategik yo'nalishi, o'ziga xos islohot mafkurasi ham hisoblanmoqda. Zero, hozirgi sharoitda global investitsion muhit tubdan o'zgarib bormoqda. Xalqaro miqyosda «COVID-

19 inqirozi to`g`ridan to`g`ri investitsiyalarning keskin pasayishiga olib keldi. Global investitsiyalar oqimi 2020 yilda 1,54 trillion dollarni tashkil etdi va bu esa 2019 yilga nisbatan 40 foizga qisqarganini anglatadi»[1]. Investitsiyalar oqimini oshirish ularni mamlakat iqtisodiyotiga yanada ko`proq jalb etishda oqilona makroiqtisodiy siyosat yuritish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Dunyoda iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etishning metodologik asoslarini takomillashtirishda kiritilayotgan investitsiyalarning iqtisodiyot tarmoqlari bo`yicha mutanosibligini ta`minlash, ishlab chiqarish va maishiy iste`mol jarayonida energiya tejamkorligiga erishish, aholi jon boshiga to`g`ri keluvchi uy-joy ta`minoti darajasini oshirish yo`nalishidagi tadqiqotlarga alohida e`tibor qaratilmoqda. Binobarin, investitsiyalar ko`lamini yanada oshirish orqali mamlakatda aholi turmush darajasini yaxshilash, yangi ish o`rinlarini yaratish, iqtisodiy o`sish sur`atlarini oshirish, innovatsion g`oya va texnologiyalarni amaliyatga keng joriy etish, iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllantirish imkoniyatlari yuzaga keladi.


O`zbekistonda davlat kapital qo`yilmalarini qisqartirish, kvotalash, litsenziyalash, nazorat paketlariga egalik qilish, talabni rag`batlantirish va boshqa shunday vositalar orqali investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishni takomillashtirish yuzasidan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Kelgusida ham investitsion muhitni yaxshilash davlat makroiqtisodiy siyosatining ustuvor yo`nalishi bo`lib qoladi. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining o`rta va uzoq muddatli istiqbollarida bu sohada aniq vazifalar belgilangan. Jumladan, «2026 yilga qadar O`zbekistonda xorijiy investorlar bilan birga davlat-xususiy sheriklik mexanizmini joriy etgan holda, qishloq xo`jaligi, to`qimachilik, energetika, transport, sog`lijni saqlash, ta`lim, infratuzilmani rivojlanishish va yo`l qurilishi sohalarida umumiyligi 15 mlrd. dollarlik 200 dan ortiq loyihalarni amalga oshirish rejalashtirilgan»[2].

O`zbekiston Respublikasida investitsiya jarayoni qator prinsiplarga asoslanadi: innovatsionlik – investitsiya jarayoni korxona yoki boshqa korxona iqtisodiyotining sifatli rivojlanishini ta`minlashi hamda bozorda unga talab bo`lishi, shuningdek,

iqtisodiy tizimda to`planib borayotgan o`zgarishlarni hisobga olishi lozim; yo`nalganlik – investitsiya jarayoni O`zbekiston iqtisodiyotining yaxlit rivojlanishi va kapitaldan maksimal samara olish imkonini berishi lozim; egiluvchanlik – investitsiya jarayonining maksimal darajada samaradorligiga erishish va investitsiya taktikasini tartibga solish hamda korxonalar tashkiliy tuzilmasini egiluvchanligini nazarda tutishi lozim; uzlusizlik – investitsiya jarayoni davlatning investitsiyaga oid siyosatining shakllanish jarayoni uzlusizligi va investitsiya resurslarini davlatning iqtisodiy rivojlanishini ta`minlash maqsadida o`z ichiga oladi.

Tadqiqot davomida o`rganilgan fikr-mulohazalarga suyangan holda, O`zbekiston Respublikasi investitsiya siyosatini ijtimoiy maqsadlarga erishish maqsadida iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb etish bo`yicha iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoni sifatida tavsiflash mumkin va bundan kelib chiqib, investitsiya siyosati deganda, muallifning fikricha, mamlakat darajasida amalga oshirilayotgan muvofiqlashtirish va klasterlash metodlari yordamida uning xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanishdan katta samara olishga qaratilgan chora-tadbirlar majmu” deb ta`riflash o`rinli.

Investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish muhim ahamiyat kasb etib, unda bevosita sohalar, mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoit va investitsion jarayonlar davom etishida yuzaga kelgan hamda keladigan muammolar aniqlanib, bu muammolarni hal etish iqtisodiyotni me`yorida saqlab turish va ijtimoiy boshqarishni qo`llab-quvvatlash imkonini beradi. Olib borilgan tahlillar ko`rsatmoqdaki, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishning asosiy omillari sifatida quyidagilarni ajratib olish maqsadga muvofiq (1-rasm).



1-rasm. Investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishdagi asosiy omillar¹

1-rasmdan ko'rindiki, ko'rsatib o'tilgan omillar butunlay boshqa-boshqa xarakter kasb etsa-da, ular milliy iqtisodiyotni investitsiyalash jarayonlarini tartibga solish majmuasini tashkil etib, umumiy ma'noda iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi o'zaro uzviy bog'liq omillardir. Shu sababdan, muallifning fikricha, yuqorida keltirilgan obyektlar bilan investitsiya jarayonlari o'rta sidagi bog'liqlik bo'yicha kengroq tushuncha berish maqsadga muvofiq.

Investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishning asosiy obyektlaridan biri, iqtisodiy davr bo'lib, u barcha tomonlari bilan iqtisodiyotning hamma sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, investitsiya jarayonlarida iqtisodiy davr harakatini doimiy ravishda nazorat qilib borish va tartibga solish lozim. Chunki iqtisodiyotning tarkibiy qismlari o'zaro bog'liqligi sababli uning hech bir sohasi inflyatsiya to'lqini yoki turg'unlikning nohush oqibatlaridan chetda qolmaydi.

Investitsiyalarni tartibga solishning obyekti sifatida eng asosiysi investitsion

¹ Manba: Tadqiqot natijalari asosida muallif ishlanmasi.

muhit hisoblanib, unga ko`ra, mamlakatda investorlar kafolatlangan yuqori foyda olishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar xorijiy investorlar oqimining oshishiga olib keluvchi muhim shartlar nazarda tutiladi. Jumladan, tovar zaxiralari tugashi, import hajmi oshishi, to`lov balansi yomonlashishi va boshqa salbiy oqibatlar yuz berishi kuzatiladi. Bu holatda makroiqtisodiy tartibga solishda talabni oshirishga, ishlab chiqarish va kapital kiritilishini sekinlashtirishga, imkoniyatga qarab qayta ishlab chiqarish hamda jamg`armani qisqartirishga e'tibor qaratish lozim.

Investitsion faoliyatni tartibga solishning xorij tajribasini uchta xarakterli model asosida ko`rib o`tgish mumkin:

Birinchi, «Davlat – regulyator» modeli. Bu modelda bozor davlat tomonidan tartibga solib turiladi hamda u ma`muriy xarakterdagi tezkor chora-tadbirlar yordamida investitsion faoliyatga ta`sir ko`rsatishga asoslangan davlat siyosati orqali amalga oshiriladi (Xitoy).

Ikkinci, «Davlat + transmilliy korporatsiyalar (TMK)» modeli. Bu modelda xalqaro mehnat taqsimotini hisobga olib, ixtisoslashishga e'tiborni jamlagan holda uni milliy manfaatlar hamda transmilliy korporatsiyalar (TMK) faoliyatiga yo'naltirilgan davlat siyosatini birlashtirish orqali amalga oshirish (Finlyandiya).

Uchinchi, «Mikroiqtisodiyot + makroiqtisodiyot + davlat – koordinator» modeli. Bu model asosan mamlakatning turizm-rekreatsiya resurslarini turli darajadagi iqtisodiyot agentlari manfaatlarini hisobga olgan holda investitsion siyosat asosida mamlakatni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati orqali amalga oshiriladi (Chexiya).

Xitoy, Finlandiya va Chexiyada investitsiya faoliyatini samarali boshqarishga oid fikrlar, mutlaqo o`xhash emasligiga qaramay, bitta umumiylikka ega – davlatning investitsiya siyosati mavjudligi, mamlakat resurs salohiyatining kuchli tomonlaridan dunyo xo`jalik aloqalari nuqtayi nazaridan foydalanish, ichki va tashqi bozorning bir-biriga kirib borishi (iqtisodiy chegaralarning «ochiqligi»). Muallifning fikricha, aynan shu prinsiplar, umuman dunyo xo`jaligi uchun ham, alohida mamlakatlar iqtisodiyoti uchun ham samarali va ular investitsiya faoliyatini

samarali boshqarish asosini tashkil etishi lozim. Shundan kelib chiqqan holda, qiymati kamida 10 mln. AQSH dollari ekvivalentida bo`lgan yirik investitsiya loyihasi uchun:

- ijara muddati davomida yer solig`i summasiga nisbatan qo`llaniluvchi;
- Soliq kodeksiga muvofiq belgilanuvchi stavkaga nisbatan oshiriluvchi koeffitsiyent miqdori;
- jami mahsulotlar tarkibida eksport qilinadigan mahsulotlarning yuqori ulushi;
- ilg`or texnologiyali mahsulotlarning umumiy mahsulotlarga nisbatan ulushi;
- ish bilan ta`minlanuvchi fuqarolarning o`rtacha yillik soniga nisbatan mezonlar asosida eng yaxshi taklifni tanlab olish va loyihani amalga oshirish uchun ijaraga yer uchastkasi berish maqsadga muvofiq.

Makroiqtisodiy jarayonlar milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qamrab oladi. Makroiqtisodiy jarayonlarda asosan uchta katta ishsizlik, inflyatsiya hamda iqtisodiy o`sish jarayonlarini o`rganiladi. Ular makroiqtisodiy muammolar hisoblanadi. Iqtisodiyotning beqaror rivojlanishi tufayli bu muammolar vujudga keladi va ularni hal etishning bir necha usullari mavjud. Keltirib o`tilgan muammolar turli xil sharoitlar, davlatning olib borayotgan iqtisodiy siyosati, fiskal va monetar siyosat orqali vujudga kelishi mumkin.

Milliy iqtisodiyot darajasida shakllantiriladigan kengaytirilgan takror ishlab chiqarish modeli o`sish sur`ati va proporsiyalarini aniqlash uchun xizmat qiladi. Iqtisodiy o`sish aniqlashda bir va ikki sektorli modellardan foydalanish mumkin.

Ko`pchilik iqtisodchilar mamlakatda investitsiyalarni moliyalashtirish bo`yicha ichki manbalarni ko`zdan kechira turib, davlatning budget mablag`laridan tashqari, asosan barcha mulk shakllaridagi korxona va tashkilotlar, fermer xo`jaliklarining xususiy mablag`larini nazarda tutadilar.

Moliyaviy investitsiyalar erkin bozor infratuzilmasi rivojlangan mamlakatlarda, qimmatli qog`ozlar bozori orqali kapitalning sohalar bo`yicha taqsimlanishi muhim ahamiyatga ega davlatlarda ko`proq tarqalgan. Rivojlangan mamlakatlarning moliyaviy investitsiyalari tarkibida asosiy o`rinni shaxsiy

investitsiyalar tashkil qiladi.

Tadqiqot natijalarida aniqlangan ma'lumotlar asosida korrelyatsion-regretsiyoning usulidan foydalanib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning bog'lanishini o'rghanish maqsadga muvofiq. Bunda quyidagicha belgilashlarni kiritish mumkin:

Y — investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish,

X_1 — soliq-budget siyosati,

X_2 — valyuta siyosati,

X_3 — narxni shakllantirish siyosati,

X_4 — talab va taklif siyosati,

X_5 — ish bilan bandlik siyosati.

Mazkur belgilashlarni kompyuter texnologiyasining «Exel» dasturida berilgan formuladagi argumentlar o'rniiga qo'yib, iqtisodiy-matematik usulda tanlab olingan omillar o'rtaqidagi bog'lanish nisbatlari aniqlanadi.

Quyidagi 1-jadvalda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar bog'lanishining korrelyatsion tahlili keltirilgan.

1-jadval. Investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishda unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning korrelyatsion tahlili²

	Y	X_1	X_2	X_3	X_4	X_5
Y	1					
X_1	0,867594	1				
X_2	0,836587	0,503251	1			
X_3	0,678216	0,730325	0,656401	1		
X_4	0,872231	0,534051	0,672545	0,575552	1	
X_5	0,620232	0,653023	0,652141	0,461252	0,723612	1

² Manba: tadqiqotdan kelib chiqqan holda muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-jadvaldan ko`rinib turibdiki, investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish hamda budget-soliq siyosati o`rtasida bog`lanish mavjud ($0,867594$). Alohida ta`kidlab o`tish joizki, davlat budget xarajatlarini (davlat xarajatlari va transfert to`lovleri) ko`paytirish yoki qisqartirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga aralashadi. Bu o`z navbatida, davlat bosh islohotchi tamoyili amalda ekanligidan dalolat beradi. Investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish va valyuta siyosati o`rtasidagi bog`lanish $0,836587$ ga teng bo`lib, bu ko`rsatkich ikki munosabat o`rtasida ham zichroq bog`lanish mavjudligini ifodalagan, bu o`z navbatida, valyuta siyosatidagi barqarorlik kapital qo`yilmalar ortishiga olib keladi.

Chunki valyuta qiymatining barqarorligi hamda inflyatsiya darajasining muvozanat holati investorni investitsiya qilishga qiziqishini rag`batlantiradi. Shuningdek, investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solishda valyuta kursi barqarorligini saqlab turish maqsadida soliq yoki pul siyosatidan xorijiy valyuta yetishmasligini bartaraf etish vositasi sifatida foydalaniadi.


Investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish bilan narxni shakllantirish siyosati o`rtasidagi bog`lanish qiymati $0,678216$ ni ifodalashi o`rtachadan zichroq bog`lanishga ega bo`lib, o`z navbatida, investitsiya kiritilishiga imkon yaratadi. Bunda iqtisodiyotning bir maromda oshib borishini yetarli darajada investitsiya bilan ta`minlash va muomaladagi pul massasiga bog`lab borish lozim. Shuningdek, investitsiya jarayonlarini makroiqtisodiy tartibga solish hamda talab va taklif siyosati o`rtasidagi bog`lanish ($0,872231$) boshqalarga nisbatan zichroq bo`lib, har bir investor bozordagi talab va taklif munosabatlarini o`rganish shu asosida belgilangan loyihalarga investitsiya kiritilishini anglatadi. Bu, o`z navbatida, tuzilayotgan loyihalarni har tomonlama o`ylagan holda mukammal ravishda ishlab chiqib, investorlarga taqdim etishni talab etadi.

Bu borada mamlakatimizdagi mavjud erkin iqtisodiy zonalardagi mavjud imkoniyatlardan foydalanishni nazarda tutgan holda, hududda mineral xomashyo resurslari mavjudligini hisobga olib, xorijiy kompaniyalar bilan sheriklik asosida

«Angren» erkin iqtisodiy zonasida sirlangan chinni tosh buyumlar va keramik plitalar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish (yillik loyiha quvvati 1,9 mln. kv m bo'lgan) loyiha tuzilib, uni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Bu esa o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va eng asosiysi aholi daromadini oshirishga yordam beradi.

Kutilmagan davlat investitsiya ta'sirlarining bunday choralaridan foydalanib, muallif ikkita ekonometrik spetsifikatsiyani taxmin qilgan. Birinchidan, muallif davlat investitsiya ta'sirlarining real YAIMga ta'sirini, qarzning YAIMga nisbatini, YAIMdagi ulush sifatida xususiy investitsiyalar va ishsizlik darajasini aniqlashga harakat qilgan. So'ngra davlat investitsiyalarining ta'siri iqtisodiyotning holatiga ko'ra o'zgarib turishini tekshiradi, u turg'unlik va kengayish davrida fiskal siyosat ta'sirini o'rghanadi.

Yuqoridagi fikrlarni ilmiy asoslash maqsadida iste'mol va jamg'arma hajmini, unga ta'sir ko'rsatayotgan omillar o'rtasidagi bog'liqlikni iste'mol funksiyasi orqali asoslash mumkin. Iste'mol funksiyasini grafik ko'rinishida ham tasvirlash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Iste'mol funksiyasining grafikdagi tasviri³

³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan olingan ma'lumotlar asosida muallif ishlanmasi.

Bunda, Y o`qqa iste`mol sarflari, X o`qqa esa, daromad miqdori joylashgan. Ikkita o`q o`rtasida 45°li burchak ostida o`tuvchi 0F to`g`ri chiziq iste`mol sarflari va ixtiyordagi sof daromad miqdorining tengligini ifodalaydi. 0X o`qidagi har bir daromad miqdorini ifodalovchi bu chiziqda joylashgan nuqta 0Y o`qning tegishli miqdordagi iste`mol sarfiga tengligi aniqlangan. Jumladan, uy xo`jaligi sof daromad hajmini to`liq iste`molga sarflaydi. Biroq bunday tenglik amalda doimo ham ro`y beravermaydi. Iste`mol sarflari miqdori ba`zida joriy sof daromadlar miqdoridan past bo`lishi, ba`zida esa oshib ketishi ham mumkin.

Shuning uchun iste`mol egri chizig`i sof daromad 0F chizig`iga mos tushmay, unga nisbatan ma`lum darajada og`adi. Har ikkala chiziqning o`zaro kesishgan V nuqtasi “0 darajadagi jamg`arma”ni anglatadi. Bu nuqtaning chap tomonida iste`mol sarflari daromad miqdoridan yuqori bo`lib, bu manfiy jamg`arma deb ataladi. 1-rasmdagi V nuqtaning o`ng tomoni esa ijobjiy (musbat ishorali) jamg`arma deb ataladi. Aynan V nuqtada aholi daromadlari va sarflarining muvozanatiga erishiladi, bu qiymat O`zbekistonda 2020 yilda yakuniy iste`mol xarajatlari 452208,2 mlrd. so`m bo`lib, undan iste`mol va jamg`arma darajalarining muvozanat nuqtasini belgilash mumkin.

Bundan ko`rinadiki, daromadining 75,05 foizi iste`molga, 24,95 foizi jamg`arishga teng bo`ladi. Daromad miqdori oshib borgan sari bu muvozanat buzilib, jamg`arma miqdori ortib boradi. Rasmdagi daromadning X1 darajasida iste`mol miqdori YEN kesmadan, jamg`arma miqdori esa, RL kesmadan iborat bo`ladi. Iste`mol va jamg`arma hajmi iste`molchilar boyligi va qarzi darajasiga, narx va soliq o`zgarishlari hamda boshqa bir qator omillarga bog`liq.

Xulosa qilib aytganda, huduhiy investitsiyalash jarayonlarini tartibga solish orqali kapital qo`yilmalarni jalb etishning asosiy instrumentlari: tashqi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish; aniq loyihalar taqdimotini amalga oshirish va ularni baholash uchun maxsus axborot-konsalting guruhlari hamda agentliklariga taqdim etish tizimini takomillashtirish; hamkorlik to`g`risidagi boshlang`ich bitimlar, memorandumlarni tuzish va maxsus



ma tumanlar bazasini yaratish; investorlarga, alohida loyihalarga maxsus imtiyozlar berish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. World investment report 2020. // https://unctad.org/system/files/official-document/wir_2020_en.pdf. https://es.europa.eu/info/sites/default/files/economy-finance/ip144_en_1.pdf.

2. Шавкат Мирзиёевнинг биринчи Тошкент халқаро инвестиция форумининг очилиш маросимидағи нутқи // <https://daryo.uz/k/2022/03/24/shavkat-mirziyoyevning-birinchi-toshkent-xalqaro-investitsiya-forumining-ochilish-marosimidagi-nutqi/>.

"Innovations in Science and Technologies"